



## HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLİSH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Maxmudova Marguba Xosilbekovna

*Payariq tumani 58-maktab o'qituvchisi*

### IQTIDORLI BOLALAR BILAN ISHLASH TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada iqtidorli bolalarni aniqlash, ular bilan ishslash va o'quvchilar iqtidorini oshirish yo'llarini ilmiy jihatdan asoslashga harakat qildik.

**Kalit so'zlar.** Iqtidor, layoqat, tashxis, psixologik so'rov mashqlari, musobaqa, tanlovlari.

Maktabga ilk qadam qo'ygan har bir sog'lom bola qaysidir yo'nalishda layoqatga ega bo'ladi. Bolalardagi layoqatlarni aniqlash tashxislash orqali amalga oshiriladi. Birinchi sinfda ta'lim olishga kirishgan bolalarning mavjud layoqatlari, bilmndonlik darajalarini belgilaydi.

Bugungi kunda ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining tez sur'atda jadallik bilan rivojlanishi barcha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya sifatini mazmunan yangi bosqichga ko'tarishni talab etmoqda. Bu esa yoshlar bilan olib borilayotgan ishlar ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, muammolariga mas'uliyat bilan yondashish iqtidorli bolalar orqali komil insonni tarbiyalab, voyaga yetkazish bugungi kun talabiga aylanmoqda. Buning yorqin dalili sifatida, O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev «Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» qarorni imzolagani va ular bo'yicha olib borilayotgan ishlarni keltirishimiz mumkin.



Ta’lim muassasalarida yoshlarga ta’lim-tarbiya berishda eng avvalo, iqtidorli bolalarga e’tiborimizni qaratishimiz kerak. Chunki ular o‘quvchilarga namuna shuningdek, tengdoshlarini o‘z ortidan ergashtira oladigan yoshlar vakili hisoblanadi.

Shu o‘rinda “iqtidor sohiblari kimlar?” degan savol paydo bo‘ladi. “Iqtidor” arabcha “qodir bo‘lmoq”, “qila olmoq”, ya’ni shaxsnинг ijodiy xususiyati va aqliy faoliyatini anglatadigan tushunchadir. Iqtidorli yoshlар O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining hamda uning jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallashini ta`minlovchi muhim omil va millat ziynati hisoblanadi. Shunday ekan, iqtidorli bolalarni barvaqt aniqlash va ularning qobiliyatini ro‘yobga chiqarishda ta’lim muassasalarining o‘rni beqiyosdir. Iqtidorli bolalar maqsadga intilish, qat’iyatlilik va mehnatsevarlik kabi fazilatlari hamda ijodiy faoliyati bilan, shug‘ullanish istagi bilan ajralib turadi. Iqtidorli o‘quvchilarni izlash, aniqlash va tayyorlashning asosiy maqsadi bu respublikamizning ilmiy va ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi intellektual salohiyati bor yoshlarni tarbiyalash, yordam berish, iste’dod sohiblariga bilimning tegishli sohalari va fanning aniq yo‘nalishlari bo‘yicha o‘z tabiiy qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish, ulardagi noyob iste’dodini ro‘yobga chiqarish uchun imkoniyatlar yaratishdir.

O‘quvchilar layoqatlilik darajalarini o‘zlarining bilimdonliklari orqali namoyon qiladilar. O‘quvchidagi layoqatlilik rivojlantirib borilsa, bu layoqat iqtidorlilikka aylanib boradi. Maktab psixologlari o‘qituvchi bilan hamkorlikda tegishli mutaxassislarini jalb qilgan holda har bir sinfda o‘quvchilarning iqtidorlilik darajalarini aniqlash bo‘yicha tashxislarni amalga oshiradilar. Masalan:

Bolalar ichki intishlari va xarakterini o‘rganish bo‘yicha amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan psixologik so‘rov mashqlari:

1. «Ranglar» so‘rov mashqlari .

Bolalarga uchta rang tanlash imkonи beriladi:

- Oq (xarakterda aql ustuvorligi);
- Qora (xarakterda jismoniy kuch ustuvorligi);
- Qizil (xarakterda xissiyotlar ustuvorligi);

2. «Idishlar» so‘rov mashqlari.

Bolalarga uch xil idishda (sopol, chinni, billur) suv ichishi mumkinligi va uni tanlash imkonи beriladi.

- Sopol idish (muomalada sust mavqeda bo‘lish.);
- Chinni idish (muomalada teng mavqeda bo‘lish.);
- Billur idish (muomalada ustun mavqeda bo‘lish.);

3. «Yopiq eshik» so‘rovi mashqlari.

Bolalarga qulf eshikli uy ko‘rsatiladi va ulardan shu eshik ortida nima ko‘rishlari so‘raladi. Ularga shu eshikning kaliti faqat ularda borligi uqtiriladi. Bolalarning nima javob qilishi ularning ko‘nglida nima borligi yoki yo‘qligini biliшga imkon beradi.

4. «Cho‘milish» so‘rov mashqlari.

Bolaga uch xil havzadagi suvda cho‘milishi mumkinligi aytildi. Bu hovuz, bu oqar ariq, bu fantandir. Ular hovuz tanlashsa bola xarakterining doimiyligi, oqar ariq



bir maromda o‘zgarishni, fontan tez-tez o‘zgarib turishdan dalolat beradi hamda uning istak intilishlari ham shunga mos tarzda o‘zgarib boradi va hakozo.

Albatta, bunday ishlarni amalga oshirishda o‘qituvchidan kasbiy bilim va mahoratni talab qiladi. ‘Tashxis natijalariga ko‘ra iqtidorli deb topilgan o‘quvchilar o‘z intellektual potensiallarini muntazam oshirib borishlari uchun shart-sharoitlar yaratib boriladi. Iqtidorli o‘quvchilarning ota-onasi bilan maslahatlashgan holda, farzandiga qiziqishlariga mos ravishda qo‘srimcha shug‘ullanishni tashkil etish tavsiya qilinadi. Parallel sinflarning bir necha shunday o‘quvchilarini tanlab, ularni tegishli fan to‘garaklariga jalb qilish ham mumkin. Agar parallel sinflar uchtadan ortiq bo‘lsa, parallel sinflardan iqtidorli o‘quvchilar yig‘ib olinib alohida iqtidorli o‘quvchilar sinfini tashkil etish mumkin. Iqtidorli o‘quvchilarga asosiy darsliklardan tashqari qo‘srimcha adabiyotlar bilan shug‘ullanish yo‘lga qo‘yiladi”

Iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlayotganda quyidagi omillarga e’tibor berish lozim:

1. Fanlarni yuqori darajada o‘zlashtirishi.
2. Kompyuter texnologiyasini o‘rganishi va bilishi.
3. Ona tili va chet tillaridan birini puxta egallashi.
4. Fikrini erkin ifodalashi, yangi fikr va mulohazalar bildira olishga tayyorlash.
5. Soha bo‘yicha mustaqil bilim olishga yo‘naltirish va ilm-fan sohasidagi yangiliklarni tezlik bilan egallash xususiyatlarini shakllantirish.

Iqtidorli o‘quvchilarning iqtidorini oshirish yo‘llari:

1. Iqtidorli o‘quvchilar o‘rtasida muntazam ravishda kichik tadqiqotlar o‘tkazib turish.
2. Zamonaviy axborot tizimidan foydalanish uchun shart-sharoit yaratish.
3. Iqtidorli o‘quvchilar uchun iqtisoslashuvi bo‘yicha kasb o‘yinlarini tashkil etish.
4. Ilm-fan arboblari, ishlab chiqarish korxonlari rahbarlari va yirik mutaxassilari bilan uchrashuvlar tashkil etish.
5. Fan olimpiyadaları, "Bilimlar bellashuvi" tanlovi va boshqa musobaqlarga jalb qilish.
6. Respublika va xalqaro miqyosdagi o‘tkaziladigan anjumanlarda ishtirok etishga yo‘naltirish.
7. Ijtimoiy qo‘llab- quvvatlash.

Fikrimizning yakunida shuni aytish lozimki, bilimli va iqtidorli bola nafaqat o‘zining, balki xalqning, millatning ham kelajagini belgilaydi. Shu bois yuqori aqliy imkoniyatlarga ega bo‘lgan iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash va iqtidorini ro‘yobga chiqarish hamda yoshlar iste’dodini rivojlantirish borasidagi ishlar ko‘lamini kengaytirish, pedagoglarni doimo izlanishga, zamon bilan hamnafas bo‘lishga chorlaydi. Shu bilan birga o‘qitishning izchilligi, bola psixologik-fiziologik imkoniyatlarini chuqr o‘rganish, bola bilan individual ishslash tamoyilini yo‘lga qo‘yishni taqozo etadi.

### Foydalilanigan adabiyotlar



1. Mirziyoyev Sh. M. «Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qaror. PQ-4306-son, 2019 y.
2. Boshlang‘ich ta’lim konsepsiysi. –T.,2015 y.
3. Nishonova S. Komil shaxs tarbiyasi. –T.: "Istiqlol", 2003 y.